

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO FAOLIYATINI STATISTIK BAHOLASH

Begalov Abduqodir Abdusalomovich

ISFT instituti

“Iqtisodiyot va kompyuter injiniring” kafedrası

o‘qituvchisi

E-mail: begalovabduqodir@gmail.com

Ergashev Mirjon Yorqin o‘g‘li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

“AKT sohasida iqtisodiyot” kafedrası

katta o‘qituvchisi

E-mail: mirjonergashev1996@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasining tashqi savdo faoliyati statistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqotda tashqi savdoning iqtisodiy mazmuni, eksport va import jarayonlari hamda ularning milliy iqtisodiyot rivojlanishidagi o‘rni yoritildi. Statistik ma’lumotlar asosida tashqi savdo ko‘rsatkichlarining dinamikasi baholandi. Tovar va xizmatlar eksporti hamda importi tarkibi tizimli tahlil qilindi. Shuningdek, tashqi savdo statistikasini shakllantirish metodologiyasi va xalqaro standartlarga moslashuv jarayonlari o‘rganildi. Natijada tashqi savdo faoliyatining iqtisodiy o‘rishga, bandlikka va raqobatbardoshlikka ijobiy ta’siri asoslab berildi. Tadqiqot tashqi savdo statistikasi orqali iqtisodiy jarayonlarni baholashning muhimligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo, eksport, import, statistika, iqtisodiy o‘rish, savdo aylanmasi, metodologiya, raqobatbardoshlik.

Аннотация

В статье была проведена статистическая оценка внешнеторговой деятельности Республики Узбекистан. Раскрыта экономическая сущность внешней торговли, а также роль экспортно-импортных операций в развитии национальной экономики. На основе статистических данных проанализирована динамика показателей внешней торговли. Структура экспорта и импорта товаров и услуг была системно исследована. Также изучены методологические основы формирования статистики внешней торговли и процессы адаптации к международным стандартам. В результате было обосновано положительное влияние внешнеторговой деятельности на экономический рост, занятость и конкурентоспособность. Исследование показало значимость статистического анализа для оценки экономических процессов.

Ключевые слова: внешняя торговля, экспорт, импорт, статистика, экономический рост, торговый оборот, методология, конкурентоспособность.

Abstract

This article analyzed the foreign trade activity of the Republic of Uzbekistan using statistical methods. The economic essence of foreign trade and the role of export and

import processes in national economic development were examined. Based on statistical data, the dynamics of foreign trade indicators were evaluated. The structure of exports and imports of goods and services was systematically analyzed. In addition, the methodology of foreign trade statistics formation and its alignment with international standards were studied. The results demonstrated the positive impact of foreign trade on economic growth, employment, and competitiveness. The study highlighted the importance of statistical assessment in analyzing economic processes.

Keywords: foreign trade, export, import, statistics, economic growth, trade turnover, methodology, competitiveness.

KIRISH

Jahon tajribasidan ma'lumki, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish hamda daromadlar tengsizligini qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday muammolarni hal etishda tashqi iqtisodiy aloqalar alohida o'rin tutadi. Shu sababli bugungi kunda dunyo mamlakatlari xalqaro savdoda faol ishtirok etishga intilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2025-yilda e'lon qilingan ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida tashqi savdo jarayonlari muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Xususan, Osiyo mamlakatlari eksporti o'rtacha 2,3 foizga oshib, jahon eksportidagi umumiy o'sish tendensiyasi bilan uyg'unlashgan. Eksport hajmining ortishida Vyetnam 5,9 foiz va Gonkong 14,0 foiz ko'rsatkichlar bilan sezilarli hissa qo'shgan [1].

Jahon eksportining katta qismi rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsada, rivojlanayotgan mamlakatlarning ulushi ham salmoqli darajada shakllanmoqda. 2024-yilda global eksport hajmi 24,4 trillion AQSH dollarini tashkil etib, avvalgi davrga nisbatan 474 milliard AQSH dollariga oshgan. Rivojlanayotgan mamlakatlar eksporti umumiy hajmning 46 foizini tashkil etgan. Ayniqsa, Osiyo va Okeaniya mintaqalarida eksport va import hajmlarining 5,6 foizga o'sishi savdo faolligining kuchayganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Amerika qit'asidagi rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport hajmi 4,3 foizga, Afrika mamlakatlarida esa 1,1 foizga oshgan, rivojlangan mamlakatlarda esa savdo ko'rsatkichlari nisbatan barqaror holatda saqlanib qolgan [2].

ADABIYOTLAR SHARHI.

Savdo nazariyasi bo'yicha dastlabki tahliliy yondashuv iqtisod fanlari doktori Adam Smit tomonidan yozilgan. Iqtisodiyot uyushgan fan sifatidagi tushuncha 1776-yilda Adam Smit tomonidan nashr etilgan "Xalqlar boyligi" asaridan kelib chiqqan deyish mumkin. Savdo va xalqaro savdo tushunchalari ham asosan shu qo'lyozmada tasvirlangan[3].

Biz ushbu ilmiy tadqiqotimizda bir necha olimlarning savdo va tashqi savdo atamalariga ta'rif bergan ilmiy tadqiqot ishlarini ko'rib chiqdik. Bunda biz savdo bo'yicha qilingan tadqiqot ishlarini dunyo olimlari, MDH mamlakatlari olimlari hamda mahalliy olimlar kabi toifalarga ajratib o'rganib chiqdik.

Kanadalik olim V. Bryus - "Kanada ensiklopediyasi"da tashqi savdo to'g'risida fikr bildirgan. Unga ko'ra "tashqi savdo - bu turli mamlakatlar rezidentlari o'rtasida

tovarlar yoki xizmatlarni sotib olish va sotish”. Savdogarlar jismoniy shaxslar, xususiyl korxonalar yoki davlat idoralari bo‘lishi mumkin[4].

Amerikalik iqtisodchi J.N. Grossman “Savdo, ilm va rivojlanish” kitobida tashqi savdoga ta’rif bergan. Olim savdoning mamlakat chegaralari orqali amalga oshirilishi bu tashqi savdo hisoblanadi. Tashqi savdo chegaralar orqali qimmatli boyliklarga erishish deganidir. Bu orqali mamlakatda qo‘shimcha yalpi ichki mahsulot yaratilishi mumkin. Tashqi savdoda strategiyalar muhim ahamiyatga ega[5].

Yana bir guruh iqtisodchi olimlarimiz O.Sh. Dadabayev, S.S. Soatov, A.M. Sagitov tashqi savdo almashinuvdir, ya’ni mamlakat moddiy resurslarini ko‘paytirishi yoki kamaytirishi mumkin bo‘lgan tovarlarni olib kirish va olib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan harakatdir deb ta’rif berib, tashqi savdoni Bojxona statistikasining predmeti sifatida ta’kidlashgan[6].

G‘.X. Mamatqulov o‘z ilmiy izlanishlari orqali hududlarning innovatsion rivojlanish darajalariga tashqi savdo faoliyatini ahamiyatini baholagan. Unga ko‘ra mamlakat va uning hududlarida savdo operatsiyalarining mintaqa innovatsion rivojlanishida muhim drayver sifatida xizmat qilishi keltirib o‘tilgan. Tadqiqotda mintaqa xarakteridan kelib chiqqan holda uning savdo faoliyatini oshirishga xizmat qiluvchi ixtisoslashgan savdo operatsiyalarni tashkil qilish zaruriyati ochib berilgan. Olimning ilmiy izlanishlari asosida savdo operatsiyalari hajmini ortishi mintaqaning iqtisodiy o‘shishiga bevosita xizmat ko‘rsatishi aniqlangan. Tadqiqotga ko‘ra savdo operatsiyalari mamlakat ichki bozorida keng ko‘lamli raqobat yaratishi ifodalangan. Bundan tashqari savdo hajmini kengayishi mehnat resurslaridan unumli foydalanish va yangi ish o‘rinlari yaratilishida sezilarli ijobiy rolga ega ekanligi ekonometrik modellar orqali izohlangan.[7]

Z.A. Sanginov tashqi savdo faoliyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Olim kichik va o‘rta biznes korxonalarining samarali faoliyatida tashqi savdo faoliyati ta’siri tahlil qilgan. Tadqiqotda kichik biznesning tashqi savdo faoliyatidan foydalanish darajasini baholovchi ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Ilmiy izlanishlarga ko‘ra mamlakatimiz hududlarida tashqi savdo orqali kichik biznes faoliyati keng imkoniyatlar ochilishi ifodalangan[8].

N.I. Hayitova ilmiy izlanishlarida iqtisodiy o‘shishga tashqi savdoni ta’sirini empirik tahlil qilgan. Tadqiqotda olim xorij hamda mamlakatimizda tashqi savdo faoliyati tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan foydalanish darajalari tahlil qilib borilgan. Tadqiqotda mamlakatimiz hududlari iqtisodiy faoliyati tashqi savdo ochiqlik indeksi orqali baholangan. Tashqi savdoni ochiqlik indeksi iqtisodiyotni raqobatbardoshlik darajasini baholashda ham bevosita xizmat qila oladi. Bundan tashqari hududlarda tashqi savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalar mamlakat iqtisodiyoti hamda eksport salohiyatini oshirishda samarali xizmat qilish asoslab berilgan. Bundan tashqari mamlakatimizda o‘rtacha ish haqi darajasini oshishiga tashqi savdo faoliyati, jumladan eksport import operatsiyalarining ijobiy ta’sirlari mavjudligi isbotlab berilgan.[9]

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda sifatli tadqiqot metodologiyasi qoʻllanildi. Tadqiqotning nazariy asosini barqaror rivojlanish, vernakyular meʼmorchilik, konviviallik va innovatsion rivojlanish konsepsiyalari tashkil etdi. Ish jarayonida ilmiy adabiyotlarni oʻrganish, qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, kontent tahlili va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali qurilish, bino, umumiy resurslar, barqarorlik va innovatsiya oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik nazariy jihatdan yoritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro savdoda ishtirok etmasdan davlatning rivojlanishi deyarli mumkin emas, chunki tovarlar eksporti mamlakatga valyuta tushumini taʼminlaydi, bu esa davlat uchun zarur boʻlgan importni qoplash va milliy iqtisodiyot tarmoqlarni rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi. Davlat tomonidan belgilangan bojxona tartib qoidalariga muvofiq mamlakatning davlat chegarasidan olib oʻtiladigan eksport va import tovarlari tashqi savdoning statistik kuzatish obyekti hisoblanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi tashqi savdo statistikasini tashkil etish metodologiyasi Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi tomonidan tayyorlangan.

Tashqi savdo statistikasini shakllantirish tovarlar va xizmatlar guruhi boʻyicha shakllantiriladi. Shunga koʻra Milliy statistika qoʻmitasi tomonidan tashqi savdoni tashkil etish boʻyicha ikki xil uslubiy qoʻllanma ishlab chiqilgan:

- tovarlar tashqi savdo statistikasi hisobini tashkil etish uslubiy qoʻllanmasi;
- xizmatlar tashqi savdosi statistik hisobini tashkil qilish boʻyicha uslubiy qoʻllanmasi.

Tovarlar tashqi savdo statistikasini tashkil etish uslubiy qoʻllanmasi Oʻzbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qoʻmitasining qonunchiligi boʻyicha va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Statistika komissiyasining tashqi savdoni hisobga olishning asosiy uslubiy qoidalarini standartlashtirish sohasidagi koʻp yillik hamkorlikning natijasida 2010-yilda tayyorlangan

1-jadval.

Oʻzbekiston Respublikasi tashqi savdo statistikasi va uning tarkibiy tuzilishi[7]

Koʻrsatkichlar nomi	Tarkibiy tuzilishi
Tovar eksporti va importi	-paxta, kimyoviy mahsulotlar va ulardan tayyorlangan buyumlar, qora metallar; -rangli metallar; -energetika va neft mahsulotlari; -mashina va asbob-uskunalar; -oltin; -oziq-ovqat mahsulotlari.
Xizmatlar eksporti va importi	-qurilish; -transport; -safarlar (turizm); -boshqa xizmatlar.

Ko'rsatkichlar nomi	Tarkibiy tuzilishi
Tovar va xizmatlar tashqi savdo aylanmasi	-tovar va xizmatlar tashqi savdo balansi; -tovarlar tashqi savdo balansi; -xizmatlar tashqi savdo balansi.

Tovarlar tashqi savdo statistikasi "Xalqaro tovarlar savdo statistikasi: konsepsiya va ta'riflar" (XTSS-2010) da berilgan tavsiyalarni asosida ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo statistikasi uslubiy qo'llanmasiga tovarlar tashqi savdosi hisobi yanada aniqroq namoyon qilish uchun 2019-yil 26-iyunda qabul qilingan 1717-3-sonli "Davlat va bojxona tashqi savdo statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash uslubiy qo'llanmasi to'g'risida"gi nizom asosida amalga oshirilish belgilab o'tilgan. Ushbu tavsiyalar asosida ko'plab mamlakatlar o'zining tashqi savdo milliy metodologiyasiga zaruriy tuzatishlar kiritgan. Shu o'zgartirishlar asosida bugungi kunda amaliy faoliyatlar tartibi shakllangan hamda ushbu shakllanish tobora o'zgarishlar asosida takomillashib bormoqda.

2-jadval.

O'zbekiston Respublikasi tashqi savdo statistikasini tashkil qiluvchi statistik ko'rsatkichlarning o'zgarish sur'ati¹, foizda.

№	Ko'rsatkichlar nomi	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil	2024-yil 2017-yilga nisbatan
1	Tovar va xizmatlar eksporti	111,4	124,8	86,5	110,3	115,8	153,7
2	Tovarlar eksporti	108,3	128,4	93,4	107,5	108,5	151,6
3	Xizmatlar eksporti	124,1	111,9	58,4	128,8	155,6	162,4
4	Tovar va xizmatlar importi	138,7	125,0	87,1	120,6	120,6	219,6
5	Tovarlar importi	143,8	126,3	91,2	119,1	118,9	234,5
6	Xizmatlar importi	107,6	114,1	50,3	144,7	144,1	128,8
7	Tashqi savdo aylanmasi	125,8	124,9	86,8	116,3	118,7	188,4
8	Tashqi savdo balansi	373,5	125,4	88,6	146,2	129,7	786,6
9	Tovarlar tashqi savdo balansi	326,8	122,7	87,2	141,3	134,0	661,8
10	Xizmatlar tashqi savdo balansi	189,6	107,0	77,7	103,9	180,6	295,6

¹ Stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Tashqi savdoning statistik tahlili rivojlanish bosqichlari tovarlarni miqdoriy ro'yxatga olishdan boshlab multiplikativ qo'shimcha modellarni qurish orqali tendensiyalarni va fundamental omillarni sifatli o'rganishgacha bo'lgan bir necha bosqichlarni qamrab oldi. Mamlakatlararo qiyosiy tahlil o'rganilayotgan ma'lumotlarga ko'plab talablarni qo'yadi. Xususan, statistik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilishda barqaror guruh ichidagi va guruhlararo bog'lanishlarga ega bo'lgan va bir butun sifatida to'plamni tavsiflovchi asosiy xossalarini saqlaydigan hodisalar elementlari yig'indisi bo'lgan struktura muhim rol o'ynaydi (3-ilova). Ko'plab davlatlar kabi mamlakatimizning ham tashqi savdo statistikasini tashkil etish va yuritish metodologiyasi bir necha bor o'zgaradi. Ushbu o'zgarishlarga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatdi:

- tashqi savdoni amalga oshirish shartlarining o'zgarishi, shuningdek uning mamlakat iqtisodiy hayotidagi roli va ahamiyati;
- tashqi iqtisodiy aloqalarning tashkiliy shakllari evolyutsiyasi;
- xalq xo'jalik hisobining shakl va usullarini takomillashtirish;
- xalqaro tashkilotlarning statistika sohasidagi faoliyati va mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi ishtirokining kuchayishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasining predmeti tashqi iqtisodiy faoliyatda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning miqdoriy va sifat tomonlarini aniqlashdan iborat. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasini o'rganadigan asosiy narsa tashqi savdo hisoblanadi. "Tashqi savdo faoliyati xalqaro tovarlar, ishlar(xizmatlar) savdosi sohasidagi tadbirkorlik faoliyatidir". Tashqi iqtisodiy faoliyat statikasida asosan tashqi savdo faoliyatining quyidagi ko'rsatkichlar va ularning boshqa ko'rsatkichlarga bog'liqligi, ta'siri va ulushlari sifat va miqdor jihatdan o'rganish muhim ahamiyat ega bo'lib, ularni quyidagi tartibda tahlil qilish lozim:

- a) mamlakat eksporti, importi, tashqi savdo aylanmasi;
- b) boshqa mamlakatlarning tashqi savdo statistikasi ma'lumotlari.

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi usuli har qanday iqtisodiy hodisa va jarayonlarni ketma-ket uchta bosqichga asoslangan holda statistik tadqiq qiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar statistik tadqiqotining bosqichlari:

- a) ommaviy statistik kuzatish, ya'ni tashqi iqtisodiy faoliyatni tavsiflovchi birlamchi ma'lumotlarni to'plash;
- b) tashqi iqtisodiy faoliyatning turli sohalarini tavsiflovchi statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlash;
- c) umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni iqtisodiy va statistik tahlil qilish.

Kuzatuvlarni o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra har xil turlarga bo'lish mumkin. Ikkita asosiy toifa - kesishma va panel datalarni kuzatishlar. Kross kuzatuvlar bir vaqtning o'zida yig'ilib, ma'lumotlarning oniy tasvirini beradi. Bundan farqli o'laroq, panel datalarni kuzatish uzoq vaqt davomida to'planadi, bu tadqiqotchilarga vaqt o'tishi bilan o'zgarishlar va tendensiyalarni kuzatish imkonini beradi. Bu farq tegishli tahlil usullarini tanlash va natijalarni to'g'ri talqin qilish uchun juda muhimdir.

Kuzatishlarni yig'ishning turli usullari mavjud, ularning har biri o'zining afzalliklari va kamchiliklariga ega. Umumiy usullarga so'rovlar, eksperimentlar va kuzatuv tadqiqotlari kiradi. So'rovlar tadqiqotchilarga ko'p sonli ishtirokchilardan tezda ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi, tajribalar esa sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatish uchun boshqariladigan sharoitlarni ta'minlaydi. Boshqa tomondan, kuzatuv tadqiqotlari subyektlarni tabiiy muhitda hech qanday aralashmasdan kuzatishni o'z ichiga oladi, bu esa haqiqiy dunyo xatti-harakatlari haqida qimmatli tushunchalarni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boks G.E.P., Jenkins G. Reinsel G.C. - Time Series Analysis: Forecasting and Control, fourth ed., Wiley, Oxford, 2008.
2. Yuksel S., Zengin S., (2016) - Causality relationship between import, export and growth rate in developing countries.
3. Adam S. - Wealth of Nations. Ware, England: Wordsworth Editions, 2012.
4. Bryus V. - Kanada: Tarix, geografiya, iqtisodiyot, madaniyat. 1985.
5. Grossman, J.N. (1999) The Meteoritical Bulletin, No. 83. Meteoritics and Planetary Science, 34, A169-A186.
6. Dadabayev O.Sh., Soatov S.S., Sagitov A.M. - Bojxona statistikasi va tizimli yahlil, 2021.
7. Mamatqulov G'.X. - Aholiga savdo xizmatlarini innovatsion rivojlantirishni ekonometrik modellashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida). "Khwarezm travel" bosmaxonasi. .129 b. Urganch- 2025.
8. Sanginov Z.A. - Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatdagi ishtiroki samaradorligini oshirish. "Publishing High Future" OK nashriyotida bosildi. 150 b. Toshkent - 2024 .
9. Hayitova N.I. - Tashqi savdo va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro aloqalarning statistik tadqiqi. "Davr Matbuot Savdo" MCHJ. 128 b. Toshkent-2025.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**